

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Xolbekov Abdug‘ani, Rasulov Hakim HUQUQIY MADANIYAT VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZARO ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TALQINI.....	9
2. Сеитов Азамат Пулатович ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	18
3. Якубов Ильдар Харрасович, Парманов Фарход Ярашевич КОНЦЕПЦИИ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ПРОСТРАНСТВА НА ОБЩЕСТВЕННО- ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ.....	27
4. Убайдуллаева Раиса ПРАВО, КАК ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	35
5. Abduraxmonova Manzura IJTIMOIY NIHOYANI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL JIHATLARI.....	42
6. Madaminov Baxodir JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA...51	
7. Yusupov Rahimjon SOTSILOGIYANI O‘QITISHDA AHOLINI RO‘YXATGA OLISH TADBIRLARIDAN FOYDALANISH.....	59
8. Узакова Зарина ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ» И РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	68
9. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH VA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	75
10. Hojiyev Zavqiddin TASHKILOTLARDA XODIMLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
11. Mahammadjanov G‘olibjon FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLAR VA IJTIMOIY OHANG TRANSFORMATSII: UZARO BOGLIQLIK, ZARURAT OMILLARI (SINERGETIK ENDASHUV).....	93
12. Gaibnazarov Baxodir DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SOTSIAL BOSHQARUVNING ZARURIYATI OMILLARI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV).....	100
13. Mamatqulova Fotimaxon O‘ZBEKISTONDA PENSIYA VA NAFAQALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLAR.....	107

14. Komilova Xurshida XOTIN-QIZLARNI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI FAOLIYATINING IJTIMOYIY ASPEKTLARI - XALQARO TAJRIBA.....	114
15. Mannanov Erkin SIYOSIY MADANIYAT: ZARURIYATI VA FUNKSIYALARI.....	123
16. Ubaydullayev Xurshidjon MIGRATSIYA VA TA'LIM MIGRATSIYASINI SOTSIOLOGIK JIHATDAN TAHLIL QILISH.....	130
17. Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILALAR VA ULARNING BOLALARIGA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA KEYS MENEJMENT USULINING SAMARADORLIGI.....	139
18. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIYASINING XUQUQIY ME'YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	148
19. Ахмедова Раъно АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ИНДИКАТОРОВ БЛАГОСОСТОЯНИЯ.....	157
20. Латипова Нодира, Абдугафурова Чарос СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ СОЗДАНИЯ ДОСТУПНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ВУЗЕ.....	167

ПРЕДИСЛОВИЕ К НОМЕРУ

Узбекистан, как страна, поставившая целью построение демократического государства, на системной основе проводит выборы различного уровня, которые базируются на нормативно-правовой базе, регулярно совершенствуемой в соответствии с международными избирательными стандартами. Все это направлено на обеспечение участия граждан в управлении государством и обществом, реализацию принципа волеизъявления народа как неотъемлемого атрибута демократического правового государства. Социология как теоретическая наука, анализирующая эмпирические показатели развития общества, также вносит свой достойный вклад в дело осмысления и совершенствования практики проведения выборов с учетом национального опыта демократических выборов.

Так, одним из проявлений политической жизни общества является участие в выборных процессах. Фактически этот акт является важнейшей формой проявления воли народа, от которой зависит характер и особенности общественного и государственного строительства. Социология как инструмент позволяет изучать комплекс проблем, связанных с особенностями подготовки и проведения выборов, а также с поведением населения в выборных компаниях, в том числе электоральных ориентаций социальных общностей и отдельных граждан. Наша наука позволяет на основе эмпирики лучше понять факторы, влияющие на участие в выборах и голосовании, мотивы участия или неучастия в них, изучение участия электората, особенности восприятия ими предвыборных мероприятий, партий и лиц кандидатов, оценка эффективности деятельности СМИ и уровней их влияния на позиции выборов, прогнозирования результатов выборов и т. д.

Это тем более важно, что 27 октября 2024 года в Узбекистане пройдет очередные парламентские выборы. Теперь они пройдут на основе внесенных изменений и дополнений в Избирательный кодекс страны, которые включают порядок проведения выборов в Законодательную палату на основе мажоритарно-пропорциональной (смешанной) системы. В этой системе избирательные округа теперь делятся на одномандатные и единый избирательный округ. 75 депутатов Законодательной палаты будут избраны от одномандатных округов по мажоритарной системе (голосование за кандидата), остальные 75 - по пропорциональной, то есть на основе голосов, отданных политическим партиям (по партийным спискам).

Все это и послужило важным мотивом выпуска данного специального выпуска нашего научного журнала. Открывает данный номер моя статья «Использование социологических данных в политической сфере Узбекистана», посвященной проведению социологических исследований и использования их данных в реализации предвыборных технологиях. Так, утверждается, что в условиях низкой политической активности в Узбекистане представляется важным использовать наработки политической социологии в сфере разработки и реализации стратегий в сфере политического управления в части работы с информационными и коммуникационными потоками. Через комплексное использование ПР-средств поддерживается репутация кандидата, формируется паблисити, создается общий план воздействия на сознание человека.

Интерес представляет и статья профессора Национального университета Узбекистана (далее НУУз), д.соц.н. А.Холбекова и заведующего кафедрой Термезского государственного педагогического института, к.п.н., профессора Х.Расулова на тему «Социологическая интерпретация взаимосвязи правовой и политической культуры». В статье рассматривается интерес граждан к процессам, связанным с политической жизнью общества, восприятием и обеспечением своих прав и свобод, оценка населением не только уровня правовой и политической культуры общества, но также анализируется система управления, политическая культура действующих в ней ответственных руководителей, тенденции их лидерских качеств.

В журнале опубликована статья доцента Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД), к.п.н. И.Якубова и доцента Академии государственного управления

(АГУ), д.соц.н. Ф.Парманова на тему «Концепции влияния интернет-пространства на общественно-политические процессы». В статье проанализированы некоторые теоретические аспекты и различные подходы исследователей к осмыслению данного феномена, выявлены некоторые их особенности. В статье приводятся данные прикладных исследований, указывающие на растущую роль интернет-коммуникаций в формировании общественного мнения, взглядов общества на те или иные общественные проблемы.

Статья профессора НУУз, д.соц.н. Р.Убайдуллаевой «Право, как профилактика девиантного поведения» посвящена современным тенденциям в развитии права как основного регулятора общественной жизни. По мнению автора, в развитии права можно проследить тенденции гуманизации, дифференциации и прагматизации, позволяющие вести учет многообразия форм, уровней, способов практической деятельности и тех трудностей, которые могут привести к правонарушениям.

Ряд авторов представляют собой ученых, непосредственно задействованных в процессах общественного и государственного управления в нашей стране. Например, руководитель отдела социально-правового медиацентра Олий Мажлис Республики Узбекистан, к.п.н. (PhD) Г.Махаммаджанова «Институты гражданского общества и трансформация социального сознания: взаимозависимость, факторы необходимости (синергетический подход)». В статье рассмотрена деятельность, изменения, обновление, преобразование социальных институтов в обществе. Также Б.Гаибназаров, исследователь АГУ в статье «Факторы необходимости социального управления в отношениях государства и общества (социологический подход)», проанализировал новые тенденции, характерные для управления в современном обществе и государстве, в частности, социального управления с социологической точки зрения.

Влияние социальных сетей на выборы рассмотрел к.с.н., соискатель НУУз Х.Бурханов в статье «Проблемы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе и развития национальных сайтов». В данной статье изучен вопрос расширения возможностей информационной системы, развития национальных сайтов Узбекистана в Интернете, современная ситуация и имеющиеся проблемы.

Говоря о выборах можно с большой вероятностью можно говорить о том, что основной тематикой дебатов между политическими партиями страны будет вопрос эффективной реализации идеи «Узбекистан - социальное государство». В этой связи интерес представляет ряд статей, затрагивающих социальный блок развития общества. В частности, заместитель директора Филиала НИЯУ МИФИ в г.Ташкенте, к.с.н. З.Узакова в статье «Феноменологический анализ концепта «социальный капитал» и роль психологических факторов в формировании социального капитала лиц с инвалидностью» дала теоретический анализ преимущественно с позиции междисциплинарного подхода. Результаты исследований автора свидетельствуют о том, что несмотря на разработанные рекомендации по повышению социального капитала людей с инвалидностью, такие как создание доступной среды, инклюзивная и трудовая интеграция, тщательный подбор социального работника, эта проблема все еще остается актуальной и требует более тщательного изучения.

В статье профессора Ферганского государственного университета (ФГУ), д.с.н. (DSc) М.Абдурахмоновой даны теоретико-концептуальные аспекты профессиональной деятельности социальной работы по развитию социальной защиты. В статье разъяснено значение профессионального этического кодекса профессии социального работника при оказании социальных услуг, сделаны выводы о значении социальной работы в развитии профессиональной деятельности в новой системе социальной защиты Узбекистана.

В номере еще одна статья из Ферганы, а именно, доцента ФГУ, к.с.н. (PhD) Н.Имомовой «Совершенствование правовой и нормальной базы в сфере трудовой миграции», затрагивающей такую актуальную для общественного мнения в период выборов тему как государственную политику по регулированию процессов трудовой миграции. В статье представлены выводы, полученные в результате сравнительного анализа социологических исследований и официальных данных, проведенного автором.

В завершение отметим, что статьи из данного специального номера нашего журнала найдут своего читателя и будут способствовать лучшему пониманию развития современной социологической мысли в нашей стране. Напомним, что наш журнал открыт для любого автора, который стремится донести свои мысли об общественных процессах, которые представляют актуальный характер.

**С уважением,
Главный редактор Сеитов Азамат**

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Abduraxmonova Manzura,

Sotsiologiya fanlari doktori (DSc),

Fargʻona davlat universiteti, Ijtimoiy ish kafedrası professori

e-mail: manzura.abdurahmonova@mail.ru

ИЖТИМОЙ HIMOYANI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL JIHATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13338510>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijtimoiy ish tushunchasi, uning paydo boʻlish va rivojlanish konsepsiyasi, kasb sifatida inson hayotidagi oʻrni va roli, mijoz muammolaridan kelib chiqib, faoliyat yoʻnalishlari, oʻziga xos funksiyalari nazariy empirik tadqiq etilgan. Shuningdek ijtimoiy ishning tarixiy shakllanishi davrlarga bogʻlab aniqlashtirilgan, qadimdan hozirgacha shakllanishi nazariy asoslari va rivojlanishida jahon amaliyoti tajribalari, kasbiy faoliyat soha olimlarining ilmiy qarashlarining tasnifi keltirilgan. Alohida taʼkidlash kerakki, ijtimoiy ish kasbining ahloqiy kasbiy etik kodeksining ijtimoiy xizmatlar koʻrsatishda muhimligi izohlangan. Oʻzbekiston yangi ijtimoiy himoya tizimida ijtimoiy ish kasbiy faoliyatini rivojlanishidagi ahamiyatiga bogʻliq xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy ish, ijtimoiy himoya, mijoz, oila, jamiyat, shaxs, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy xodim, ijtimoiy adolat, ijtimoiy tizim, bola.

Абдурахмонова Манзура,

доктор социологических наук (DSc),

Профессор кафедры социальной работы

Ферганского государственного университета

e-mail: manzura.abdurahmonova@mail.ru

ТЕОРЕТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье теоретически и эмпирически исследуются понятие социальной работы, концепция ее возникновения и развития, ее место и роль в жизни человека как профессии, направления деятельности, конкретные функции, основанные на проблемах клиента. Историческое становление социальной работы определяется периодами, теоретическими основами ее становления с древнейших времен до современности, опытом мировой практики ее развития, а также классификацией научных взглядов ученых в области профессиональной деятельности. Отдельно следует отметить, что в статье разъяснено значение профессионального этического кодекса профессии социального работника при оказании социальных услуг, сделаны выводы о значении социальной работы в развитии профессиональной деятельности в новой системе социальной защиты Узбекистана.

Ключевые слова: социальная работа, социальная защита, клиент, семья, общество, личность, социальная услуга, социальный работник, социальная справедливость, социальная система, ребенок.

Abdurakhmonova Manzura,
Doctor of Sociology (DSc),
Professor, Department of Social Work, Fergana State University
e-mail: manzura.abdurahmonova@mail.ru

THEORETICAL AND CONCEPTUAL ASPECTS OF PROFESSIONAL ACTIVITY OF SOCIAL WORK FOR THE DEVELOPMENT OF SOCIAL PROTECTION

ABSTRACT

This article theoretically and empirically examines the concept of social work, the concept of its origin and development, its place and role in human life as a profession, areas of activity, specific functions based on client problems. The historical development of social work is determined by periods, theoretical foundations of its development from ancient times to the present, the experience of world practice of its development, as well as the classification of scientific views of scientists in the field of professional activity. Separately, it should be noted that the article explains the importance of the professional ethical code of the profession of a social worker in the provision of social services, conclusions are made about the importance of social work in the development of professional activity in the new system of social protection of Uzbekistan.

Key words: social work, social protection, client, family, society, personality, social service, social worker, social justice, social system, child.

KIRISH

Mamlakatimizda “ijtimoiy ish” kasbi yangi kasblardan bo‘lib, insonlarga, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga ijtimoiy yordam, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularning jamiyatga moslashishi va integratsiyalashishga ko‘maklashish bo‘yicha kasbiy salohiyatli yordamni amalga oshiruvchi malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib borishi munosabati bilan katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. “Ijtimoiy ish” tushunchasi qadimdan har bir inson qalbida joylashgan bo‘lib, mehr-oqibat, muruvvat, yaxshilik qilish, tarbiya va insoniylik kabi sifatlarda aks etib kelgan. Aslida bu sifatlarda insonlar qalbi orqali bir-biriga berilgan va o‘tib kelgan. Ushbu sifatlarga qaratilgan harakatlar Yevropa, Uzoq Sharq, Yaqin Sharq, O‘rta Osiyodagi mamlakatlarda ijtimoiy ish orqali ijtimoiy fikr va g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etishda salmoqli o‘rin egallagan.

Jumladan, Islom dinining muqaddas kitobi Qur‘oni Karimning Niso surasida “yetimlarni haqlariga rioya qilish, kichik yoshdagi bolalar, zaif kishilar va ayollarning huquqlarini himoya qilish” hamda “oilani mustahkamlash, qarindosh-urug‘chilikni joyiga qo‘yishga” [1, - B.475] katta e‘tibor berilgan. Shuningdek, hadisi shariflarda ijtimoiy ishning turli jihatlariga e‘tibor qaratilib, Jobir ibn Abdulloh (r.a)dan rivoyat qilinishicha: Rasululloh (s.a.v.) “Yaxshi deb hisoblanadigan har bir ish sadaqa bo‘ladi deganlar” [2, - B.77].

Qadimgi “Avesto” (mil.av. IX-VIII) kitobida yer yuzida adolat qaror topishi uchun kishilarning irqi, tili, urf-odatlaridagi farqidan qat‘iy nazar, ularning farovon hayoti uchun kurashuvchi jasur, halol, pok, tadbirkor, tashabbuskor insonlarni shakllantirish va tarbiyalash g‘oyasi ilgari surilgan [3, - B.13]. Buyuk Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) ijtimoiy hayotga katta e‘tibor berib, ijtimoiy hayot, siyosat, iqtisodiyot, boshqaruv va harbiy sohalaridagi g‘alabalarini “...adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o‘zimdanda rozi qildim.

Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, xaqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko‘nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo‘rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo‘l ostimdakilarga rahmdillik qildim, askarlarimga in‘omlar ulashdim” [4, - B.74], deb ta’kidlashida hukmronlik qilgan davrdagi ijtimoiy ishga urg‘u berilganligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Ijtimoiy himoya faqat nafaqa to‘lash bilan kifoyalanmasdan, balki muhtojlarning “oyoqqa turishi” [5] ga ko‘maklashishi lozimligi, “Biz ijtimoiy sohada aholi salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, dori vositalar bilan ishonchli ta‘minlash, jismoniy baquvvat va ma‘naviy jihatdan sog‘lom avlodni kamol toptirish masalalariga alohida ustuvor ahamiyat bermoqdamiz” [6] deb ta‘kidlashida aholi ruhiyatini yanada sog‘lomlashtirishga, bolalar hamda yoshlarni har tomonlama baquvvat, komil inson bo‘lib etishishlariga ko‘maklashishni nazarda tutadi.

Demak, shunu ta‘kidlash kerakki, ijtimoiy ish kasbiga oid xususiyatlar yurtimizda qadimdan hozirgacha shakllanib kelayotganligini o‘ziga xos xususiyatdir.

METODOLOGIYA

“Ijtimoiy ish” tushunchasi bo‘yicha XIX asr oxirida ilmiy jihatdan paydo bo‘lgan mumtoz g‘oyalar keng targ‘ib qilinib, ijtimoiy ish- ijtimoiy hodisa, davlat (ijtimoiy) instituti, insonlarning faoliyat sohasi sifatida asta-sekin ko‘p qirrali ilmiy tadqiqotlar obyekt bo‘lib qoldi. Shuning uchun, ijtimoiy ishning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda rivojlanishiga baho berishdan avval, “ijtimoiy ish” tushunchasining nazariy, ijtimoiy mohiyatini anglash maqsadga muvofiq. Jumladan, ijtimoiy ish, deganda kasbiy faoliyat tushuniladi, uning ma‘nosi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, ularni zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyat talablariga moslashtirish, ularning ratsionalligini, insoniyligini, subyektivligini oshirish, shaxslar, guruhlar, etnik guruhlar, oilalarning davlat va jamiyat bilan aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy ish texnologilari turi hisoblanadi [7, - B.27]. Demak, bu shuni anglatadiki, ijtimoiy ishning o‘zi alohida texnika yoki usullarga (mijozlar bilan aloqa, ekstremal sharoitlarda o‘zini tutish, rehabilitatsiya, psixotexnika va h.k.), shuningdek, ijtimoiy ishning har qanday tashkiliy tuzilmasi (bandlik xizmati, ijtimoiy yordam yoki himoya xizmati, rehabilitatsiya xizmati va boshqalar) o‘z texnologiyalari va ish uslublariga egaligini bildiradi.

Kasbning boshlanishini aniqlash qiyin bo‘lishiga qaramay, ijtimoiy ish tarixi boy va ahamiyatli. Ma‘lumki, inson hayotini diniy nuqtai nazardan yaxshilash uchun ko‘plab tashabbuslar qilingan. Biroq, yordam berish g‘oyasiga asoslangan ushbu tadbirlar professional xizmatlar sifatida taqdim etilmagan. Ijtimoiy ishning paydo bo‘lishi uchun dastlabki shart-sharoitlar sanoat inqilobi (XVIII-XIX asrlar) bilan bog‘liq bo‘lgan. Ijtimoiy ish kambag‘allik, savodsizlik, bolalar mehnati, og‘ir mehnat sharoitlari kabi urbanizatsiya bilan bog‘liq muammolarga javob bo‘ldi. Shu sababli, ushbu davrdagi ijtimoiy ishning mavzulari “kambag‘allikga qarshi kurashish uchun tegishli qadriyatlar va munosabatlarni rivojlantirish zaruriyati”, shu bilan birga, “kambag‘al jamoalarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash zaruriyati” sifatida berilgan.

Bular XIX asrning so‘nggi yarmida paydo bo‘lgan ikkita amaliy modelga – xayriya tashkiloti jamiyati (Charity organization societies (COS) va turar joylar bilan ta‘minlash harakati (Settlement house establishments(1884 - yil London))ga to‘g‘ri kelgan. Ushbu ikki amaliy modellar ijtimoiy ishlarni yanada rivojlantirish uchun muhim poydevor hisoblanadi.

XX asr boshlarida Yevropa mamlakatlari va AQShda ijtimoiy ish maktablari hamda bu sohadagi professional tashkilotlar rivojlana boshladi [8, - B.55]. Bu ijtimoiy ish bo‘linishini yengib o‘tish, izchil metodologiya, aniqlangan usullar va bashorat qilinadigan natijalarni ishlab chiqish zaruriyati tufayli kerak edi.

Shuningdek, 1915-yilda amerikalik ta‘lim islohotchisi A.Flexner (1866-1959) ijtimoiy ish kasb ekaniga, alohida kasb bo‘lishiga shubha qiladi. Uning fikricha, “Ijtimoiy ish qat‘iy ma‘nodagi kasbmi? Men ta‘kidlardimki, barcha tashkil etilgan va tan olingan kasblar mavjud va aniq maqsadlarga ega. Lekin bu ijtimoiy ishlarga taalluqli emas. Bu ko‘p sohalarda ishlashning bir yo‘nalishi sifatida shunchaki ma‘lum bir sohaga o‘xshamaydi, bu ko‘pgina sohalarda ishlashning umumlashgan yo‘nalishi sifatida unchalik aniq bo‘lmagan maydon bo‘lib ko‘rinadi” [9, - B.37], deb izohlaydi.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi qarashlardan kelib chiqib, bugungi kunda ijtimoiy ishni aniq makon va zamonga, katta va kichik yoki keng va tor maydondagi soha va tarmoqlardagi ijtimoiy ishlarga bo‘lib olish maqsadga muvofiq. Chunki bugungi O‘zbekistondagi bozor iqtisodiyoti tizimida keng ma‘nodagi ijtimoiy ishi aynan, hodisa sifatidagi davlatning ijtimoiy siyosati bo‘lsa, tor ma‘noda alohida ijtimoiy kasbiy faoliyatni (nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar bilan, maktabda ijtimoiy

ish kabi) qamrab oladi. Lekin, ularning maqsadlari ham aholini ijtimoiy himoyalashga, ularning farovonligini ta'minlashga qaratilgan.

Bu davrda ijtimoiy ishning mashhur tadqiqotchi ayoli amerikalik Meri Richmond ijtimoiy ishning muhim bosqichi bo'lgan "Ijtimoiy tashxis" kitobi orqali jarayonga yo'naltirilgan protsedura aralashuvini amalga oshirdi. Meri Richmonddan farqli o'laroq, tinchlik uchun Nobel mukofoti sovrindori Jeyn Addams (1860-1935) ijtimoiy adolat dasturlari sohasida yetakchiligi orqali ijtimoiy adolat va demokratiyani rivojlantirishga katta hissa qo'shgan, lekin u ijtimoiy ishni kasbga aylantirishga qarshi bo'lgan. Ushbu mafkuraviy ziddiyat uzoq vaqt davomida ham qo'llanilgan. Chunki, bir tomondan, ijtimoiy ishga nisbatan klinik yondashuv va professionallik, ikkinchi tomondan, kasbiy manfaatlar mijozning manfaatlaridan ustun turishi haqidagi ogohlantiruvchi ijtimoiy islohotlarni qamrab olgan edi [10, - B.28].

Bunga javoban, sohani kasbiy nuqtai nazardan ko'rish uchun kurashgan ijtimoiy ishchilar orasidagi professionallikka bo'lgan qiziqish yanada kuchayadi, 1920- yillarda ijtimoiy ishda mutlaqo yangi yo'nalishlar paydo bo'ladi [11]. 1930-yillardagi global iqtisodiy tushkunlik ijtimoiy ishchilar uchun ijtimoiy ishni kasb sifatida ko'rinishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ular soni o'sib borayotgan ishsizlarga duch kelishadi. Bu davrda ularning mijozlari nafaqat an'anaviy kambag'allar, balki ishlaydigan va o'rta toifadagi insonlar sonining o'sib borishi ham tashkil etadi [12, -B.23].

Shuning uchun, bu davrda hayotning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga yanada e'tibor qaratiladi. Eng asosiysi, ikkinchi jahon urushi (1939-1945) ijtimoiy ishchilarga o'z qadriyatlarini isbotlashga imkon beradi, chunki ular aholi uchun juda muhim hayotiy elementga, ahamiyatga aylanib, ularning vazifasi urushdan keyingi farovonlikni rivojlantirishga hissa qo'shishga qaratilgan edi.

1959-yilda Norvegiyada tashkil etilgan ijtimoiy ishchilar birlashmasi (IIB) Norsk Sosionomforbund) [13, - B.116] kasbni birlashtirish va targ'ib qilishga qaratilgan bo'lib, kasb sifatida oldinga siljitish maqsadida ijtimoiy ishning o'ziga xosligida ekanligini tasdiqlaydi va mustahkamlaydi. IIB tomonidan ijtimoiy ishchilar faoliyati farovonlikni ta'minlash bo'yicha davlat mutaxassislari sifatida qabul qilinadi, bu davrda ularning asosiy vazifalariga klinik amaliyot, ishni boshqarish, jamoatchilik xizmatlari, vositachilik, ijtimoiy himoya, tashviqot va siyosiy harakatlar kiritilgan edi.


O'tgan asrning 70-yillariga kelib, ijtimoiy ishning yangi mavzulari-mijozlar, ijtimoiy ishchilar, umuman, jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchilar paydo bo'ldi. Turli xil dasturlar, masalan, uy-joy qurilishi va jamoatchilik aloqalarini rivojlantirish, jinoyatchilikga qarshi kurashish (huquqbuzarlik) dasturlari qonunga aylanadi [14, -B.37]. Biroq, 1980-yillar boshidan boshlab, konservativ va ishbilarmon kuchlar hukumatlarga ijtimoiy dastur va xizmatlarni qisqartirish uchun bosim o'tkaza boshlaganida ijtimoiy ish kasbi xizmatlar ko'rsatish uchun xususiy sektorga tayanishga majbur bo'ldi [15, - B.268]. Ushbu davrdagi kasbiy faoliyat xizmatlariga bo'lgan talabning qisqartirilishi, 1990-yillardagi turli davlatlarda yuz bergan qayta qurish davridagi ahvolga olib kelgan, chunki hukumatlarga yangi dasturlarni moliyalashtirish qiyin bo'lgan, kasb sifatida ijtimoiy ish, asosan, insonlar yoki tashkilot uchun yordamchi mutaxassis sifatida maslahat berish orqali shakllangan edi, xolos.

ASOSIY QISM

Har qanday yangi xizmat turi muayyan tizim bilan birgalikda shakllanishi kerak. Hozirgi globallashtirish jarayoni kechayotgan bir vaqtda ijtimoiy ishlarga, ayniqsa, uning xalqaro jihatlariga qiziqish keskin o'smoqda. Globallashtirish turli darajadagi insonlarning farovonligiga ta'sir etuvchi yangi ijtimoiy muammolar paydo bo'lishiga olib kelganligi sababli kasbni yanada tushunish va rivojlantirish butun dunyoga tegishli hamda samarali bo'lgan ijtimoiy ish xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur. Shuningdek, globallashtirish dunyoda umumiy qabul qilingan yangi tushunchani targ'ib qilishda barcha zarur ijtimoiy ish usullaridan foydalaniladigan va turli darajadagi rasmiy tizimlar bilan ishlashga qodir bo'lgan ko'pgina istiqbolli ijtimoiy ishchilarni tayyorlash lozim.

Masalan: shaxslar, oilalar, guruhlar, jamoalar va jamiyatlar. Bundan tashqari ijtimoiy ish xodimlar boshqa institut va kasblar bilan samarali ish munosabatlarini o'rnatishlari kerak, chunki hozirda rollar va munosabatlar doimiy harakatda bo'lib, kasblararo hamkorlik tobora kuchayib

borishi natijasida ijtimoiy talabga aylanib bormoqda, bu “barcha tomonlar o‘zgarishlarning ta‘sirini tahlil qilishi va birgalikda ishlash usullarini qayta ko‘rib chiqish uchun xavfsiz hamda neytral muhitni ta‘minlay oladi”. Bunday hamkorlik zaruriyatining yorqin namunasi maktablardir. Maktablardagi ijtimoiy ish va uning ta‘lim tizimiga qo‘shilishi nafaqat ijtimoiy ishchilarni, balki barcha maktab xodimlarining vazifasi ekanligi tan olinmoqda. Shunday qilib, ijtimoiy ish amaliyotining sohasi, kasbi va yo‘nalishlari kengayib rivojlanib bormoqda (1-rasm).




1-rasm. Ijtimoiy ish kasbiy faoliyatining yo‘nalishlari

Shuningdek, ijtimoiy ish kasbi mijoz muammolaridan kelib chiqib, keng faoliyat yo‘nalishini o‘z ichiga olgan soha, u o‘ziga xos ixtisoslashgan kasbiy yo‘nalishlarga bo‘linadi. Masalan:

- sog‘liqni saqlash tizimida - shifoxonalarda ijtimoiy ish;
- mahalla tizimida - oilalar va bolalar bilan ijtimoiy ish;
- ta‘lim tizimida - maktabda ijtimoiy ish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, tadqiqot ishimizda “ijtimoiy ish” tushunchasi talqinini Yevropa, MDH, Osiyo mamlakatlari tadqiqotchilari fikrlari orqali yoritishga harakat qilindi. Jumladan, rossiyalik olimlardan V.A. Nikitin fikriga ko‘ra, ijtimoiy ish faoliyatini insonlar o‘zlarining tezligi va ritmi bilan o‘zaro ta‘sirlashadigan ko‘p omilli va ko‘p darajali jarayon deb biladi. Bu jarayon, uning fikricha “inson-inson”, “inson-guruh”, “guruh-jamiyat” va boshqa tizimlar elementlari o‘rtasida sodir bo‘ladi [16, -B.12], deb ko‘rsatsa, O.I.Baranova esa ijtimoiy ishni professional faoliyat turi sifatida ko‘rib chiqib, bu shaxslarni, insonlar guruhlarini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash orqali ularga yordam ko‘rsatish, insoniy munosabatlarni shakllantirish va uyg‘unlashtirishga qaratilgan faoliyat [17, - B.29], deb ta‘kidlaydi. E.I.Xolostova (va boshqalar)ning fikrlariga ko‘ra, ijtimoiy ishga ijtimoiy tizim sifatida qaralib, “...bozor munosabatlari rivojlanishining ma‘lum bir bosqichida davlatning himoya funksiyasini institutsionalizatsiya qilish zaruriyati yuzaga keldi”, “...quyi tizimlar bilan bir qatorda yana biri, yangisi paydo bo‘ladi, asosan, ijtimoiy ishning kasbiy faoliyati orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy himoya tizimida yordam shakllari normativ tarzda belgilanadi” [18, - B.16], deb ko‘rsatadilar. (2-rasm).



2-rasm. Funktsional tizimlarda ijtimoiy yordam shakllarini farqlash

Tadqiqotchi N.S.Korchaginaning fikricha, ijtimoiy ishda tendensiyalar mavjud bo‘lib, ushbu tendensiyalar: 1) eng samarali qisqa muddatda yordam ko‘rsatish (odatiy, kasbga xos ijtimoiy xizmatlar); 2) tashqim darajadagi professionallikka mutlaqo boshqacha talablarni taqdim etish, qo‘llab-quvvatlash jarayonini tashkil qilish (nafaqat kasbiy ijtimoiy xizmatlar, balki yordam berishning psixologik, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shakllarini jalb etish) [19, -B.67]kabilarni o‘z ichiga oladi.

R.V.Kupriyanov o‘zgarishlar dinamikasini tahlil qilib, ijtimoiy ishning ikkita yo‘nalishga ajratib, bularga:

– birinchi yo‘nalish - shaxs yoki boshqa ijtimoiy guruhga ijtimoiy yordam ko‘rsatish masalalarida ustuvorliklarning doimiy ravishda o‘zgarib turishi orqali muayyan bir tarixiy vaziyatdagi ba‘zi ijtimoiy muammolar og‘irlik darajasining o‘zgarishi bilan bog‘liqlikda davlatning ijtimoiy siyosatiga asoslanadi;

– ikkinchi yo‘nalish - ijtimoiy ishning kasb sifatida rivojlanishidagi ijtimoiy ishchining yordamga muhtoj bo‘lgan insonlar toifalarining kengayishiga qaratiladi. Ushbu hodisa dunyoning murakkabligi, globallashtirish jarayonlarida yangi ijtimoiy muammolar paydo bo‘lishiga olib kelishi bilan izohlanishi mumkin (iqlim o‘zgarishi, terrorizm, global iqtisodiy inqiroz, ekologik va gumanitar falokatlar kabilar). Ushbu vaziyatlar oqibatlarini, muammolar va yordamga muhtoj ijtimoiy guruhlarning doimiy ro‘yxatini oldindan ko‘ra bilishning imkoni bo‘lmay qolishini [20, - B.129] e‘tirof etadi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy ishning rivojlanishi bilan kasbiy faoliyatning talqini o‘rtasida nafaqat ijtimoiy yordam va qo‘llab-quvvatlashga, balki normal ijtimoiy faoliyat uchun sharoit yaratishga (ayniqsa, bu nogironlarni, ehtiyojmandlarni rehabilitatsiya qilishga yo‘naltirilganda namoyon bo‘ladi), hatto, qo‘llab-quvvatlashga urg‘u beriladi. Ijtimoiy ish mijozlarning qiyin hayotiy vaziyat va ijtimoiy muammolarini hal qilishdagi mustaqil harakatlari hisoblanadi. Ijtimoiy ish - shaxslarga, guruh yoki jamoalarga yordam berishning ijtimoiy faoliyat qobiliyatini kuchaytirish yoki oshirishga qaratilgan, ushbu maqsadga erishish uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratishga intilgan professional kasbiy faoliyat ham.

SHuningdek, ijtimoiy ish kasbiy tayyorgarlik va yuqori professionallikni talab etadigan faoliyat sifatida barqaror ijtimoiy integratsiyani shakllantirish yoki qo‘llab-quvvatlash, shaxs va guruhni reintegratsiyalashning subyektiv, fanlararo usullariga asoslangan kasbiy faoliyat turi sifatida belgilanishi mumkin. Shu bilan birga, strategik rejada turli yo‘nalishda kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq ijtimoiy ishlar evolyusiyasidagi ikkita qarama-qarshi tendensiyalarni aniq ko‘rsatish mumkin, jumladan:

1) kasbiylashtirish, texnologizatsiya, hatto byurokratashtirish, ijtimoiy ishlarni rasmiylashtirish;

2) ko‘ngilli, norasmiy ijtimoiy yordam turlari, shu jumladan, o‘z-o‘ziga yordam guruhlarini tashkil qilish. Demak, ijtimoiy ishchilar shaxs va uning muhitini o‘rganish bilan shug‘ullanadi,

maslahat va tuzatish ishlari uchun tavsiyalar beradi, jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishda me'yordan chetga chiqqan odamlarni reabilitatsiya qilish hamda o'qish uchun tadbirlarni amalga oshiradi, shuningdek, shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishga oshirishga yordam beradi. Kasbiy faoliyat, birinchi navbatda, ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash va sharhlash, yangi yechimlarni taklif qilish, harakatlarni muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi.

Fikrimizcha, kelajakda O'zbekistonning barcha soha va tarmoqlarida ijtimoiy ish kasbiy yo'nalishiga asos solinadi. Chunki, ushbu soha va tarmoqlar inson omili faoliyatining ijtimoiylashuvi natijasida harakatga keladi, inson omilining ijtimoiylashuvi davrida unga taalluqli bo'lgan shaxsiy, mikro, makrodarajadagi yechishi zarur bo'lgan muammolar ko'rinadi, bunda ijtimoiy ish kasbiy faoliyati yordamga keladi.

Xalqaro ijtimoiy ishchilar federatsiyasi (IFSW) va Xalqaro ijtimoiy ishchilar uyushmasi tomonidan qabul qilingan ijtimoiy ishning global ta'rifida "Ijtimoiy ish-amaliyotga asoslangan kasb va ijtimoiy o'zgarish hamda rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi ilmiy intizom, ijtimoiy hamjihatlik va insonlarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda ularni ozod qilish", deb berilgan. Ijtimoiy adolat, inson huquqlari, jamoaviy javobgarlik va xilma-xillikni hurmat qilish tamoyillari ijtimoiy ish markazida turadi. Ijtimoiy ish ijtimoiy- gumanitar fanlar va tubjoy bilimlariga asoslangan insonlar hamda tuzilmalarning hayot muammolarini hal qilish hamda farovonlikni oshirishga jalb qilinadi.

V.Shepfor va S.Xoreyslar ijtimoiy ish kasbiy faoliyati-insonlar hayotidagi ijtimoiy o'zgarishlarga yordam beradi, atrof-muhit bilan aloqa qilishda muammolarni hal qilishga imkon berib, ushbu harakatlar inson hayoti sifatini yaxshilash maqsadida inson faoliyati va ijtimoiy tizimlar nazariyalari yordamida amalga oshiriladi [21, -B.15], deb ta'kidlaydilar.

Ijtimoiy ish ta'rifi Janubiy Afrika Farovonlik departamenti kontekstida ko'rib chiqilayotganida oq qog'ozda kamsitishning barcha shakllari yo'q qilinishi va xizmatlar Janubiy Afrika konstitutsiyasiga muvofiq taqdim etilishi aytilgan. Bu madaniyat, din yoki tildagi farqlardan qat'iy nazar barcha mijozlar huquqlari hurmat qilinishini anglatadi. Shu sababli, xizmatlar ko'rsatish mijoz imkoniyatlarini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiy ish bo'yicha xizmat ko'rsatishda ijtimoiy ish natijasidan ijtimoiy rivojlanishga o'tish sodir bo'ladi, demak, ijtimoiy ish nafaqat ma'lum bir guruhga, balki har qanday shaxsga ham tegishli bo'ladi [22], deb ko'rsatiladi. Demak, mijozni rivojlantirish tomon siljish ularning farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy ish ta'rifiga mos keladi.

XULOSA

Demak, ijtimoiy ishchi o'z bilim va ko'nikmalaridan mijozlarga ijtimoiy xizmatlarni (jismoniy shaxslar, oilalar, guruhlar, jamoalar, tashkilotlar) jalb qilish uchun foydalanadi. Ijtimoiy ishchilar insonlarga muammolarni hal qilish va qobiliyatlarni rivojlantirishga, kerakli resurslarni olishga, ulardan foydalanishga yordam beradi, shaxslar, shu jumladan, insonlar va ularning atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni osonlashtiradi, tashkilotlarni muhtoj insonlarga jalb qiladi, shuningdek, ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali to'g'ridan-to'g'ri klinik amaliyotlar bilan ishlashlari mumkin yoki ular normativ-huquqiy hujjatlar va siyosatlar ishlab chiqish sohasidagi yirik ijtimoiy xizmat tizimlarini boshqarish hamda rejalashtirishda tizimli darajada ishlashlari mumkin.

Umuman olganda, har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining sifat va miqdor ko'rsatkichlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasidan dalolat beradi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida har bir inson ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Demak, aholini ijtimoiy himoya qilish aholining ehtiyojmand qatlamlariga pensiya, nafaqa, imtiyozlar, moddiy yordam berish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bugungi kunda korxonalar va tashkilotlarda ham aholini, jumladan, o'z ishchi-xodimlarini ijtimoiy himoya qilish kuchli yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston hukumati tomonidan aholining turli guruh qatlamlarini, bolalarni, oilalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ko'p bosqichli ijtimoiy himoya tizimi to'liqligicha shakllantirilgan va amalga oshirilmoqda.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy ish-universal ijtimoiy institut bo'lib, ijtimoiy ish kasbiy faoliyati bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy ish xodimlari, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yechishda aholiga, aholining turli guruh qatlamlariga, jumladan, har bir individga, uning ijtimoiy maqomi (status),

millati, dini, irqi, jinsi, yoshidan qat'iy nazar yordam ko'rsatadigan, ularni hayotiy farovonlikka yetaklaydigan amaliy kasbiy faoliyat.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Биринчи жуз. – Тошкент: Hilol-nashr, 2013. -Б. 474-475.
2. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. – Toshkent: O'zbekiston, 1990. – 77 b.
3. Razzoqov A., Toshmatov Sh., Ormonov N. Iqtisodiy talimotlar tarixi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – 13 b.
4. Temur tuzuklari. Abduhalilov B. va boshq. tahriri ostida. Forscha matndan Sog'uniy A., Karomatov H. tarjimai.–Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 74-75.
5. Mirziyoyev Sh. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasida yangi tizim joriy etiladi. <https://president.uz/oz/lists/view/3091>.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatt'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2019-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlimidagi ma'ruzasi./Xalq so'zi, 2016-yil, 15-yanvar.
7. Албегова И.Ф. Институционализация социальной работы в современной России: теория и практика. – Ярославль, 2004. - С.27-28. <http://www.lib.uniya.ac.ru/edocs/iuni/20040604.pdf>
8. Healy, L. M. (2012). The History of the Development of Social Work. In L. M. Healy & R. J. Link (Eds.), Handbook of International Social Work. Human rights, Development, and the Global Profession (pp.55–62). New York: Oxford University Press. -55 p. <https://sng1lib.org/book/6138388/d752cf>
9. Leighninger, L. (2000). Creating a New Profession: The Beginning of Social Work Education in the United States. Alexandria, VA: Council on Social Work Education. 2000. – P. 37-39
10. Qarang: Zastrow C. 1989. The Practice of Social Work (3rd ed.). California: Wadsworth Publishing Company. P. 28-36. <https://sng1lib.org/book/3111180/c6bf05>
11. Nsonwu M.B., Casey K., Cook S.W., & Armendariz, N. B. (2013). Embodying Social Work as a Profession: A Pedagogy for Practice. SAGE Open, 3(3), 1-3–8. Retrieved from: <http://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/2158244013503835>
12. Dulmus. C. N., & Sowers, K. M. (2012). The Profession of Social Work: Guided by History, Led by Evidence. New York: John Wiley & Sons. P.23 https://media.wiley.com/product_data/excerpt/1X/11181769/111817691X-178.pdf0
13. Hutchinson, G. S., Lund, L., & Oltedal, S. (2001). Social Work in Norway. In G. S. Hutchinson, L. Lund, R. Lyngstad & S. Oltedal (Eds), Social Work in Five Countries. Professional, Educational and Social Policy Context for Social Work in Australia, Canada, Norway, Russia and USA. -116p. <https://www.fo.no/historie/category1258.html>
14. Sewpaul, V., & Hölscher, D. (2004). Social Work in Times of Neoliberalism: A Postmodern Discourse. Hatfield: Van Schail Publishers. – 37 p.
15. Jennissen, T., & Lundy, C. (2011). One Hundred Years of Social Work: A History of the Profession in English Canada, 1900–2000. Waterloo: Wilfrid Laurier University Press.–268.
16. Никитин В.А. Некоторые проблемы разработки концептуальных основ теории социальной работы. - М.: Юрайт, 2008. – С.12-14.
17. Баранова О. М., Зайцева И. А. Социальная работа как общественный феномен и вид профессиональной деятельности // Научное сообщество студентов XXI столетия. Общественные науки : сб. ст. по мат. XIX междунар. студ. науч.-практ. конф. – Новосибирск: Изд. «СибАК», 2014. -29 с. — URL: [http://sibac.info/archive/social/4\(19\).pdf](http://sibac.info/archive/social/4(19).pdf).
18. Холостова Е.И., Студнёва Е.Г. и др. Теория социальной работы. Учебник. М.: Дашков и К, 2018. - С.16-19.

19. Корчагина Н.С. Влияние личностных особенностей студентов-экологов на формирование готовности к профессиональной деятельности. // Сб.научн.ст. по материалам ВНИПК, Обнинск: РГСУ, 2011. -С. 67-70.

20. Куприянов Р.В. Система профессионального образования социальных работников: историко педагогический анализ и перспективы развития. - Казань: Изд-во КНИТУ, 2014. -129 с.

21. Sheafor, B.W. & Horesjsi, C.R. 2010. Techniques and guidelines for social work practice. Upper Saddle River, USA: Pearson. -15 p.

22. Gray, M. & Lombard. The post-1994 transformation of social work in South Africa. International Journal Social Welfare 2008: Date of access: https://www.researchgate.net/publication/227520771_The_Post-1994_Transformation_of_Social_Work_in_South_Africa 15 July. 2020.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000